

**Ochilov Iskandar**

*Guliston davlat universiteti*

*Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti*

*Tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Xiva shahrining tashkil topish tarixi, o'sha davrda hukmronlik qilgan sulolalar va manbalar, shuningdek, Xivada turizmning o'рни haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Polvonyop, Som, Ichan qal'a, Dishan qal'a, tarixiy manbalar, turizm*

Xiva-O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Xorazm viloyatining janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40km janubda, 95m balandlikda joylashgan. Shahar yonidan Polvonyop (qad. Xeykaniq) kanali o'tgan. Shahar juda ko'p qadimiy arxitektura yodgorliklariga boy hisoblanadi.

Rivoyat qilishlaricha, Xiva shahriga Nuh payg'ambarning o'g'li Som asos solgan. Shahar karvon yo'lida joylashganligi sababli u yerga tez-tez savdogarlar kelib turishgan. Shaharga kelgan yo'lovchilar u yerdagi chuqur quduqdan chiqayotgan obihayotdan bahro olib "xey-voh" deb yuborishgan. Buni mahalliy aholi tilida "Xeyvoh", "Xeyvaq", "Xayva" deb ayta boshlashgan va shu tariqa "Xiva" vujudga kelgan. 305-995-yillarda Xiva Xorazm davlatining tarkibiga kirgan. IX-XI asrlarda Xivani bir qancha sulolalar boshqargan. Shahar madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgan. Bu davrda astronomiya, matematika, kimyo va boshqa sohalarga oid o'quv muassalari mavjud bo'lgan. 1220-yilda shahar Chingizxon tomonidan vayron qilib tashlangan. 1511-yilda Shayboniylar davlatining tarkibiga kirgan. 1598-yilda esa shahar Xiva xonligining tarkibiga kiritiladi. Xivada eng hashamatli va ulug'vor tarixiy yodgorliklarning qurilishi XIII-XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda Xivada Qo'ng'irotlar sulolasi bosh. qaruviga to'g'ri keladi. 1763-yilda Qo'ng'irotlar urug'i vakili Muhammad Amin hukmtonligi davrida Xiva O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylangan. Ko'pgina masjid va madrasalar qayta tiklangan. XIX asrning o'rtalarida Olloqulixonning tashabbusi bilan Dishan qal'aning mudofaa devori qurilgan. 1873-yil Xiva rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan. Hozirda bu shahar YUNESCO himoyasida.

Bugungi avlodni o'tmish tarixini o'rganishda tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari beqiyos o'ringa ega. Olimlar manbalarni o'rganadilar, sharhlaydilar va shu orqali bizga o'tmish tarixni yoritib beradilar. XII asrda yashagan Hasanbek Rumluning "Eng go'zal tarix asari" Xiva tarixiga bag'ishlangan. Xiva xoni, shuningdek tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi Turk" asari ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Chunki ushbu asarda tarixiy faktlar to'plangan bo'lib, turkiy xalqlar shajarasi to'g'risida qimmatli

ma'lumotlar berilgan. Mahalliy mualliflar orasida Munis va Ogohiyning asarlarini ham tarix uchun muhim manba deb aytishimiz mumkin. Munisning "Firdavsul iqbol" asari 1806-yilda Eltuzarxonning topshirig'iga asosan yozilgan. Asar Xivaning XI asrdan 1812-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab olgan. Munis vafot etgandan so'ng, Xonlik tarixini yozishni Ogohiy davom ettiradi. U 1872-yilgacha bo'lgan tarixni aks ettirgan "Shohidi Iqbol" asarini yaratgan. Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831-1832-yillarda yaratilgan "Dili g'aroyib" asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixini Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig'i bilan 1912-yilda Yusufbek Bayoniy yaratgan. 1725-yilda Xivaga Rossiyadan elchi bo'lib kelgan Florio Benevening esdaliklarida ham ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar keltirilgan. 1793-1794-yillarda Orenburgdan Xivaga kelgan oftolog, vrach Blankennagelning esdaliklari ham muhim ahamiyatga ega. 1819-yilda Rossiya elchisi sifatida kelgan I. Muravyovning "Esdaliklar"ida Xiva to'g'risida, tarixiy obidalar, shaharlari, hunarmandchilik va savdo-sotig'i to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. 1842-yilda Rossiya elchisi G. Danilevskiy va u bilan birga kelgan R. Baziner birgalikda "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari va qishloqlari, savdosotig'i va sanoati" nomli asar yozib qoldirganlar. 1858-yilda Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari N. Ignatyev yozib qoldirgan esdaliklar ham Xivatarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Taniqli sharqshunos olim N. Vasilevskiyning "O'zbeklar Xorazmda", "Inoqlar hukmdorligi" va "Qo'ng'iroq sulolasi" asarlari Xiva xonligi XI asr va undan keyingi tarixiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, Xiva va Rossiyaning XIII-XIX asrdagi o'zaro aloqalarida sharqshunos olim S. Jukovskiyning "Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi" asarida o'z ifodasini topgan. Yevropa sayyohlari va olimlari ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili A. Jenkinsonning "Jenkinsinning Xiva va Buxoroga sayohati" deb nomlangan esdaliklari XIX asr tarixi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yana bir venger sharqshunos olimi A. Vamberining "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asari Xiva xonligi tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston olimlari ham Xiva tarixini o'rganishgan. Bulardan akademik I. Mo'minovning "Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi" (1976) asari alohida ahamiyatga ega.

Xiva shahrida turizmning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Shaharga Turkiya, Rossiya, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va shuningdek boshqa davlatlardan sayyohlar ko'plab kelishadi. Xivada turizm yaxshi rivojlangan. Hozirgi kunda xorijlik hamda mahalliy sayyohlar uchun keng qulayliklar yaratish va tuzrizm salohiyatini yanada rivojlantirib sayyohlar oqimini kengaytirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada Prezidentimiz joriy etgan qonunlar muhim ahamiyat ega. Bugungi kunda Xiva boy moddiy ma'naviy merosi, xalqaro aviareyslarni qabul qiladigan zamonaviy aeroporti bilan sayyohlarni jalb qilmoqda.

Xorazm viloyatida 255 ta madaniy meros obyektlari davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, shulardan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik

yodgorliklari,32 tasi muqaddas qadamjoldir.Bulardan 53 ta madaniy meros obyektlari Xiva “Ichan Qal’a” Davlat Qolgan madaniy obyektlar viloyatning turli tumalarida joylashgan.Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potentsiali,uning imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.1920-yilda tashkil etilgan “Ichan qal’a”muzey qo’riqxonasi,1967-yildan Osmon ostidagi muzey nomini oladi.O’ziningnoyob tarixiy va me’morchilik yodgorliklari bilan tanilgan Xiva 1990-yilda Jahon Madaniy Yodgorliklari ro’yxatiga kiritkirit.YUNESCOning Parij Shahrida o’tkazilgan 28-sessiyasida Xiva shahrining jahon madaniyatini rivojlantirish alohida ahamiyati ta’kidlangan.1997-yil 20-ooktabrda Xiva shahrininh 2500 yillik yubileyi nishonlangan.

Xulosa o’rnida aytib o’tishimiz kerakki,bizning tariximiz boy qadim tarixga ega.Biz bu tariximiz bilan butun dunyo mamlakatlari orasida faxrlana olamiz.Hozirgi kunda Xivaning boy madaniy meros obidalarimiz chet ellik sayyohlarning nafaqat xalqimiz orasida tariximizni o’rganishga bo’lgan qiziqishni oshirmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.”Xiva-ming gumbaz shahri”.T.,1997.
- 2.Mo’minov.Xorazmning qadingi davrdan hozirgi kungacha bo’lgan tarixi.T.,1976.
- 3.<https://uzbekistan.travel>
- 4.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.T.,2000.
- 5.Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.T.,2014.